

---

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта  
махсус таълим вазирлиги  
Бухоро давлат университети



**АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ  
ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ: АДАБИЙ ЖАРАЁН, ҚИЁСИЙ  
АДАБИЁТШУНОСЛИК, УСЛУБШУНОСЛИК ВА ТИЛШУНОСЛИК  
МАСАЛАЛАРИ**

**Халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжуман  
материаллари  
ТЎПЛАМИ**

**Бухоро - 2022**

keng o'qiladi. Uning asarlari ko'pincha ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga bag'ishlanganligi sababli, ijtimoiy bosim kabi ijtimoiy muammolar, poraxo'rlilik, firibgarlik kabi axloqsiz hattiharakatlar va Amerika orzusining odamlar taqdiriga salbiy ta'siri Jon Steynbekning "Qayg'ularimiz zimistoni" asarida mohirlik bilan tasvirlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. American literature of the XX century. A group of writers (2005) USA: Boston University Press.
2. Baturin, S. (1984) Djon Steynbek i tradisii Amerikanskoj literaturi. Khudojestvennaya literatura. S. 351.
3. Benson, Jackson (1977) John Steinbeck's Cannery row: a Reconsideration. - Western American Literature. Vol. 12, No.1. - P. 11-40.
4. Ganieva Orzigul Khayriddinovna and Chariyeva Mekhriniso Jahonovna, "DESCRIPTION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PEOPLE AND SOCIETY IN JOHN STEINBECK'S 'THE GRAPES OF WRATH'", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 75-78, Apr. 2021.
5. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul. "Description of social problems in" Cannery Row" by John Steinbeck." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1376-1379.
6. Mulyarchik A.S. (1988) Sovremenniy realisticheskiy roman SSHA. 1945-1980. Moskva: Visshaya shkola. C.177
7. Osmukhina O.Y. (2018) "Problema cheloveka v romanax Dj. Steynbeka "Grozdy gneva" i "Zima trevogi nashey"" Filologicheskiye nauki. Voprosi teorii i praktiki. Tambov: Gramota., № 3(81)
8. Ulughov A. (2011) Images of the heart in the stories. Shark yulduzi. № 4. P 137-141.
9. Steinbeck J. (1993) The Grapes of Wrath. Introduction by Brad Leithauser. UK.: David Campbell Publishers Ltd. P.578.
10. Kyoko Ariki , Luchen Li and Scott Pugh (2007) John Steinbeck's Global Dimensions Scarecrow Press Publisher
11. Steinbeck J. (2008) The Winter of Our Discontent Penguin Classics Publisher
12. <https://www.gradesaver.com/the-winter-of-our-discontent/wikipedia/themes>
13. <https://www.glib.ru/books/Cannery-Row-198401.html>

**MARGARET MITCHELLNING "SHAMOLLARDA QOLGAN HISLARIM" ASARI  
FUNKSIONAL-DISKURSIV TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA**

**Mohinur Raxmiddinovna Sayliyeva,**

*Buxoro DU Xorijiy tillar fakulteti Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasida  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Margaret Mitchellning "Shamollarda qolgan hislarim" asaridagi frazeologik birliklarning funksional- diskursiv jihatdan tahliliga bag'ishlanadi. Mazkur maqolamizda 40dan ortiq frazeologik birliklarni tahlil qilganmiz.

**Annotation.** This article is devoted to the functional- discursive analysis of phraseological units in the work of Margaret Mitchell's "Gone with the Wind. In this article we analyzed more than 40 phraseological units.

**Аннотация.** Данная статья посвящена функционально- дискурсивному анализу фразеологизмов в произведении Маргарет Митчелл « Унесенные ветром». В статье мы проанализировано более 40 фразеологизмов.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, konseptuallik, idioma, ekvivalentlik, diskursiv- funksional, analog, maqol.

**Key words:** phraseological unity, conceptuality, idiom, equivalence, discursive- functional, analog, proverb.

**Ключевые слова:** фразеологическое единство, концептуальность, идиома, эквивалентность, дискурсивно- функциональный, аналог, пословицу

Mazkur maqolaning maqsadlaridan biri frazeologik birliklarning badiiy asarlarda qay tarzda qo'llanilishidan iboratdir. Biz olib qaraydigan asarim Margaret Mitchellning **Gone with Wind** bo'lib, ushbu asarda iboralarning o'ri, ularning asar o'qilishidagi ta'siri ona tilisi boshqa til bo'lgan o'quvchi nuqtai nazaridan kuzatib boriladi.

Bundan tashqari, badiiy asarlarda uchraydigan iboralarning qo'llanilishini o'rganish jarayonida yig'ilgan bilimlar til o'rganuvchiga juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish o'rinni deb hisoblayman. Yana bir sabablardan biri shundan iboratki, til o'rganuvchi iboralarni o'rganish orqali o'sha xorij til ustasiga erishish jarayonidagi katta poyqadam egasiga aylanadi.

Ushbu maqolada ikkita masala ko'rib chiqiladi. Ulardan biri iboralarning matndagi o'ri va mazmuni bilan tanishib chiqsa, ikkinchisi bo'lsa ushbu iboralarning qo'llanishi badiiy asarda qay darajada ta'sir o'tkazishini izohlab o'tadi. Birinchi masala iborali birliklarning asar personajlari orasida ishlatilishi, qo'llanilish tarzi, uslubi va qaysi personajlar orqali aytilishi usha asar qahramonlari haqida ko'proq ma'lumot berishga yordam beruvchi vosita sifatida ham qaraladi. Iborali birliklar ma'no jihatda metofozalarga o'xshab ketsada, mazkur tadqiqot ishida faqat iboralarga e'tibor qaratiladi

Margaret Mitchellning badiiy asari *Gone with the Wind*ning o'ziga xosligi shundan iboratki, u nafaqat adabiy nuqtai nazardan diqqatga sazovor manba sifatida qaraladi, balkim lingvistik jihatdan ham frazeologik birliklarni o'zida qamrab oluvchi boy kitob desak anglashmagan bo'lamiz. Ushbu badiiy asarni misol tariqasida ko'rib chiqarkanmiz, undagi barcha iboralar kontekstual ravishda e'tiborga olinadi.

Avvambor, aytib o'tish joizki, diqqat markazimizdagi ushbu badiiy asarda lingvistik nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqot ishlari kam bo'lganligi bois biz olib borgan ishda chuqur yondashuv kuzatiladi desak ajabmas. Chunki bundan oldingi tadqiqot ishlarida mazkur badiiy asardagi mavzu va qahramonlari asosiy diqqat markazida bo'lgan. Faqatgina, istisno sifatida olib qaraydigan bo'lsak, boya aytib o'tilgan finlyandiyalik tadqiqotchi tilshunos Sanna Mustonenning 2010 yilda iboralarning tarjimai borasida olib borilgan ishlari ushbu asardagi iboralarning mazmunini izohlashda hissasi juda katta deb hisoblaymiz. Mustonen iboralarni ingliz tilidan fin tiliga tarjima qilish jarayonida uchta uslubni tajribada sinab ko'rgan. Birinchisi hammaga tanish uslub bo'lib, iborani tarjima qilish jarayonida uni boshqa so'z birligi bilan ifoda qilishdan iboratdir. Ikkinchisi esa iborani uning ekvivalenti bilan solishtirish tarzida tarjima qilish bilan cheklangan uslubdir. Oxirgisi va amaliyotda eng kam qo'llanilgan yo'llardan biri bu so'zma-so'z tarjima yo'li bo'lib, bu orada uning ya'ni frazeologizmning mazmuni yo'qolish ehtimollari kuzatilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, iborali birliklar tilning ishlatilishida va uni o'rganish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu kabi majoziy yoki metaforalik birliklar nafaqat adabiyotda, balkim boshqa sferalarda ham uchraydi. Masalan, marketing reklamalarida, jurnalistikada, siyosiy va diniy sohalarda qo'llanilishini tajribada uchratsa bo'ladi. Bundan tashqari, majoziy birliklar matndagina emas, balkim har kungi gaplashiladigan ya'ni og'zaki tilda ham uchratilib o'rganiladi. Demak, iboralar og'zaki va yozma ravishda doimiy tarzda qo'llanilib, ularni rasmiy va norasmiy kontekstda kuzatsa bo'ladi.

Maqolaning mazkur qismida tadqiqot har xil aspektlari inobatga olingan bo'lib, unda umumiy va har bir detallarga alohida yondashuv tarzida qaralgan. Masalan, biz olib qaraydigan asarimizda 348 ta iborali birliklar kuzatilgani ma'lum bo'ldi. Bular orasida ibora va iborali fe'llar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Diqqat e'tiborimizdagi asar 887 betdan iborat bo'lsa, tadqiqot damovida kuzatilgan iboralar o'rtacha olganda bir betga shuncha ya'ni bitta ibora to'g'ri keladi. Ishimizni keyingi qismlarida iboralarni raqamlar bilan qavsda izohlab o'tganmiz va har birini alohida o'rganib chiqish orqali chuqur tushunchaga ega bo'lganmiz.

Avvambor aytib o'tish joizki, matnlarda uchraydigan iboralar turli xilligi uchun bitta xulosaga kelish mumkin – iboralar tilda tez-tez uchraydigan leksikologiyaga kiruvchi boy

turkumdir. Lekin har bir iborani alohida qarab chiqish jarayonida ularning ko'pisi asardagi qahramonlar to'g'risida ekanligi ma'lum bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, matnlarda uchraydigan iboralar turli xilliligi uchun bitta xulosaga kelish mumkin- iboralar tilda tez-tez uchraydigan leksikologiyaga kiruvchi boy turkumdir. Lekin har bir iborani tahlil qilish jarayonid ularning ko'pisi asardagi asardagi qahramonlar, ularning ichki kechinmalari holatini tasvirlashda qo'llanilganligi ma'lum bo'ldi. Asarda ko'p miqdorda odam tana a'zolari yoki tana harakati ishtirokidagi iboralar ham uchraydi. Masalan, (1) *to hold one's tongue*, (4-b.) (2) *to take one's foot on one's hand*, (6-b.) (3) *to set foot on somewhere*, (8-b.) (4) *to put out someone's tongue*, (9-b.) (5) *to have eye for* (11-b.) (6) *to turn a sharp eye*, (191-b.) (7) *wipe one's eyes*, (293-b.) (8) *rack one's brain*, (289-b.) (9) *roll one's eyes*, (332-b.)

Asar qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan iboralar 65%ni tashkil etadi. Vaziyatni tasvirlovchi iborali birliklar ham anchagina bo'lib ularni aniqlab olish qiyin emas. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan statistik ma'lumotlardan shuni xulosa qilsak bo'ladiki, asar qahramonlariga tegishli bo'lgan iboralar miqdori muhit vaziyatni tasvirlovchi frazeologik birliklardan ancha ko'p ekanligini ko'rish qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki asarda sodir bo'layotgan voqealar qahramonlarga bevosita tegishli ekanligi namoyon bo'ladi. Faqat ayrim holatlarda atrof-muhit va syujetni ifodalovchi iboralarning ishlatilishini kuzatish mumkin.

Iboralarning asar qahramonlarining o'zaro so'zlashuvlarida ya'ni dialoglarida va asarning aytib berilish jarayonida ko'p marotaba ishlatilganligi kuzatiladi. Miqdor jihatdan olib qaraladigan bo'lsa, iboralarning 30% qahramonlar tilidan ishlatilgan, 70% muallif tomonidan vaziyatni tasvirlashda qo'llanilgan.

Takror qo'llangan iborali birikmalar asarda 80% ni tashkil qiladi. Iboralarning tildagi o'rni ularning kerakli informatsiyani shinam va boy tarzda yetkazib berish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, iboralarning mazmunini ularga ma'no jihatidan o'xshash so'zlardan ko'ra tezroq anglash mumkin, chunki ular xalq orasida oddiy so'zlardek tushuniladi.

Avvalambor, iboralar vositasida ko'p so'zli gaplar qisqa so'z birikmalari orqali ifodalanib matn mazmunini ham o'zgartirmaydi. Ular suhbatga tejamkorlik alomatini qo'shadi. Ayrim iboralar atigi ikki so'zdangina iborat bo'lsada lekin gapning mazmun mohiyatini yo'qotmaydi. Lekin biz tahlilga torgan asarimizda ikki so'zdan iborat iboralar kam foizni tashkil qiladi. Uch va undan ortiq so'zdan tashkil topgan iborali birikmalar asarimizda ancha. Ushbu ikki xil kategoriyani yanada yaxshiroq ko'z oldimizga keltirish uchun ularni misol sifatida keltirish bilan kifoyalnamiz:

- |  |                        |
|--|------------------------|
| 1. <i>lay eyes on someone</i>          | 1. <i>throw smile</i>  |
| 2. <i>to hold one's temper</i>         | 2. <i>draw courage</i> |
| 3. <i>drop someone's eyes</i>          | 3. <i>take strap</i>   |
| 4. <i>hold the rein</i>                | 4. <i>suit oneself</i> |
| 5. <i>from the cradle to the grave</i> |                        |
| 6. <i>draw a deep breathe</i>          |                        |

Iboralar tildagi oddiy fikrni ifodalashda har tomonlama tasvirlashda qo'l keladi. Bu jihatdan iboralar so'z va ma'noga boy bo'lib aniq bir fikr yoki vaziyatni yetkazib berishda juda muhim rol o'ynaydi.

Asarda hayonlar hamda insonlar bilan bog'liq metaforik tarzda qo'llanilgan iboralar ham bor: (1) *rear like a horse* (191-b.), (2) *come down on somebody like a swarm* (550-b.), *gad about like a man* (542-b.) (3) *swell up like a toad* (565-b.), *scramble into somewhere like a rabbit* (541-b.).

Asarimiz inson ichki kechinmalari hissiyotlari tasviri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli hissiyotni ifodalovchi frazeologik birliklar hamda idiomalar asarda ko'p qismni tashkil etadi.

Masalan, asarda bir hissiy holat ma'nosini bildiruvchi bir necha xil iboralar ishlatilganini ko'rib chiqdik:

- (1) *lay on eyes on someone*



- (2) *throw a glance*  
 (3) *turn a sharp eye*  
 (4) *drop someone's eye*  
 (5) *have an eye*

Yuqorida ko`rsatilgan, bu iboralar qaramoq, nazar tashlamoq, razm solmoq degan ma`noni bildiradi. Unga mazmun jihatdan oid elementlarni ifodalagan. Ayrim paytlarda ikkita ibora bir xil guruhga taalluqli bo`lsada, kontekstual jihatdan mazmun- mohiyatida ular birbiridan bir oz farq qilish mumkin bo`lgan holatlari kuzatilgan.

Iboralar mazmun mohiyati jihatidan qaysi davr yo vaqtga qarashli tasvirlovchi vosita sifatida qaralsa ham ajab emas Chunki tilimizda oldin ishlatigan va hozirda kamdan – kam uchraydigan bu kabi so`z birikmalari

matnning eski vaqtga yoki qadimgi davrlarga taaluqli ekanligini bildiradi. Shu o`rinda, zamonaviy iboralarni uchratib tursak, matnda ishlatilgan tilning zamonaviyroq ekanligini tushunishimiz mushkul emasdir.

Iboralar asarning o`qilishiga boshqa yo`llar orqali ham ta`sir etishi mumkin. Asarni o`qiyotgan shaxsning xayoliga kelmaydigan tomonlar borki, ularni tasvirlashda alohida iboralar tanlangan.

Biz tahlil qilayotgan asarda frazeologik birliklar sifatida maqollar ham uchraydi. Fikrimiz dalili sifatida asarda qo`llanilgan maqolni misol sifatida havola qilamiz:

*Sugar always caught more flies than vinegar as Mammy said.*(152-b.)

Mazkur onaxon tilidan ishlatigan maqol birovlarni o`z tomoniga og`dirish , birovni jalb qilish maqsadida fikrni dallilash uchun ishlatiladi.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz joizki, Margaret Mitchell asar qahramonlarining dunyoqarashi, ma`naviyati, ma`daniyatiga xos ibora, maqol, idiomalarni mahorat bilan qo`llaydi. Ular qahramonlarning xarakterini, ijobiy va salbiy xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Bir so`z bilan aytganda, muallif iboralardan unumli va o`rinli foydalana olgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. *Gone with the wind* by Margaret Mitchell A project Gutenberg of Australia eBook <http://gutenberg.net.au>.(2002.)
2. *Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English*(2005)
3. *Longman Dictionary of Idioms* (1979)

#### CHINESE IN THE WORKS OF US WRITERS

**Tukhtayeva Farida Ismatullayevna**  
*Teacher of English literature department,*  
*Bukhara State University, Uzbekistan*  
[tukhtayeva@list.ru](mailto:tukhtayeva@list.ru)

In 1931, Buck published *The Good Earth*, which played a key role in his career. Before this novel was published, Americans knew almost nothing about China and the Chinese. The story of *Generous Land* takes place in the village of Nanshgou, Anhui Province, where Pearl and her husband Lossi spent the first years of their marriage. The play depicts the life of farmer Van Lun. It tells the story of her marriage to old age. At the beginning of the novel, Van Lun is a poor farmer, and at the end of the work, he becomes rich.

Pearl Buck, who is well acquainted with the life and customs of the Chinese people, describes the relationship between the young couple as follows: "There was a woman coming to the house. Never again would Wang Lung have to rise summer and winter at dawn to light the fire. He could lie in his bed and wait, and he would also have a bowl of water brought to him, and if the earth were fruitful there would be tea leaves in the water. Once in some years, it was so ". Meaning: "Soon there will be a bride at home. Van Lun no longer has to get up early and light a fire in winter and summer. While lying down, he can wait for a bucket of boiling water, and when the harvest is plentiful, he can have tea. That's what happened in some years. " Many